

Biologiya Ta'limida O'quvchilarda Mustaqil Va Ijodiy Faoliyatlarini Rivojlantirishdagi Muammolar Va Ularning Yechimlari.

Niyozov Qahramon Adashaliyevich

Namangan davlat universiteti Fiziologiya kafedrası o'qituvchisi,
Namangan shahri, O'zbekiston Respublikasi.

nambilog@umail.uz

Qodirjonov Bahriddin Rasuljon o'gli

Namangan davlat universiteti biologiya yo'nalishi 4-kurs talabasi,
Namangan shahri, O'zbekiston Respublikasi.

qadirjonovbahriddin292@gmail.com

Qisqacha annotatsiya.

Ushbu maqolada biologiya ta'limida o'quvchilarda mustaqil va ijodiy faoliyatlarini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar hamda ushbu jarayonda yuzaga kelayotgan muammolar va ularning yechimlar haqida fikr yuritilgan.

Tayanch so'zlar: ijodiy faoliyat, mustaqil fikr yuritish, ijodiy fikr yuritish, bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiya, ta'lim texnologiyalari.

Краткая аннотация.

В данной статье приведены рекомендации по развитию у учащихся развитие самостоятельной и творческой деятельности по биологическому образованию, а также проблемы, возникающие в этом процессе, и пути их решения.

Ключевые слова: творческая деятельность, самостоятельное мышление, творческое мышление, знания, умения, компетенция, компетентность, образовательные технологии.

Brief abstract.


This article provides recommendations for students to develop independent and creative activities in biological education, as well as problems that arise in this process and ways to solve them.

Keywords: creative activity, independent thinking, creative thinking, knowledge, ability, skills, competence, educational technologies.

So'nggi yillarda mamlakatda ta'lim-tarbiya tizimining sifati va samaradorligini oshirish, bog'cha tarbiyalanuvchilari, o'quvchi va talaba yoshlarda zamonaviy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, ta'lim tizimlari hamda ilm-fan sohasi o'rtasida yaqin hamkorlik va integratsiyani, ta'limning uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda¹.

Jumladan, umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturi loyihasi doirasida fizika, kimyo, biologiya, texnologiya, tasviriy san'at, matematika fanlarining dasturlarini tayyorlashda o'quvchida amaliy ko'nikma shakllantiruvchi mavzularni qamrab olish, fanlarni mazmun-mohiyatan bog'lash va to'ldirish, o'quvchilarda shakllanishi zarur bo'ladigan bilim va ko'nikmalar darajasini aniq belgilash inobatga olingan. Umumta'lim fanlari kesimida fan

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6-noyabrda "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108 sonli farmoni.



dasturlarini tahlil qilish grafigi ishlab chiqilgan va mazkur grafik asosida ishlar amalga oshirilmoqda.

Biologik ta'lim mazmunining uchinchi tarkibiy qismini ijodiy faoliyat tajribalari tashkil etib, mazkur faoliyatni tarkib toptirish uchun, avvalo, o'quvchilarda mustaqil va ijodiy fikr yuritish ko'nikmalarini tarkib toptirish lozim. Fikr inson faoliyati, uning o'z kuchi, qudrati va bilimni tashkil etuvchi ma'naviy-insoniy sifatidir. Fikr rivoji ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lganligi uchun, biologiyani o'qitish jarayonida o'quvchilarning mustaqil va ijodiy fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish zarur.

Biologiyani o'qitishda o'qituvchi o'quvchilarning mustaqil va ijodiy fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun o'qituvchi, avvalo:

- o'quvchilarning darsda mustaqil ishlashlari uchun o'quv topshiriqlarini tuzishi, biologik ob'ektlar, tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlarni o'rganish maqsadida tajriba va kuzatish o'tkazish yuzasidan ko'rsatmalar tayyorlashi;
- o'quvchilarning qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning mustaqil ta'limi uchun qo'shimcha adabiyotlar va multimedialarni tanlashi lozim;
- o'quvchilarning mustaqil va ijodiy fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun ta'lim-tarbiya jarayonida rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasini qo'llash zarur.

O'quvchilarda ijodiy fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirishda o'qituvchi tahliliy fikr yuritishning tarkibiy qismlaridan, xususan, mustaqil fikr yuritish ko'nikmalaridan foydalanishi mumkin. Shuni qayd etish kerakki, o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirmay turib, ijodiy fikr yuritish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish mumkin emas.


Ijodiy fikr yuritish ko'nikmalari ijodiy faoliyat tajribalarining asosini tashkil etadi. O'quvchilar ijodiy faoliyat tajribalarini egallashda aqliy faoliyat usullari bo'lgan o'rganilayotgan ob'ektni tahlil qilish, taqqoslash, tarkibiy qismlarga ajratish, sintezlash, sabab-oqibat bog'lanishlarini tasavvur qilishi, umumlashtirish va xulosa yasashni egallagan bo'lishlari lozim. Shundagina o'quvchilar ijodiy faoliyatning asosini tashkil etadigan xususiyatlar:

- tanish ob'ektlarning yangi xususiyatlari va vazifalarini topishi;
- tanish vaziyatlardagi muammolarni mustaqil ravishda hal etish;
- bilim va ko'nikmalarni yangi kutilmagan vaziyatlarda qo'llash orqali muammoni hal etish;
- o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda ijodiy qo'llashga o'rganishi mumkin.

O'quvchilarda mustaqil va ijodiy fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirishning muhim sharti, o'quvchilarning o'z fikrlarini dalillash va asoslash sanaladi. Shu sababli, o'quvchilarning mustaqil va ijodiy fikr yuritish ko'nikma, malakalari, asosan, zamonaviy yondashuvlarga asoslangan ta'lim texnologiyalardan foydalanish orqali rivojlantiriladi. Jumladan, muammoli, hamkorlikda o'qitish, didaktik o'yin texnologiyalaridan ta'lim jarayonida foydalanish orqali o'quvchilarda ijodiy faoliyatlarini rivojlantirish samaradorligi yuqori hisoblanadi.

Biologiya ta'limida o'quvchilarda mustaqil va ijodiy faoliyatlarini rivojlantirishda bir qator muammolar yuzaga kelishi mumkin. Ushbu muammolarni hal etish uchun turli xil strategiyalar va yondashuvlar qo'llaniladi. O'quvchilarda mustaqil va ijodiy faoliyatlarini rivojlantirishda asosiy muammolar quyidagilar:

- Biologiya faniga qiziqishning kamligi o'quvchilarning mustaqil va ijodiy faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.
- O'quv materiallari, laboratoriya jihozlari va texnologiyalarning yetarli emasligi ta'lim jarayonida qiyinchilik tug'dirishi mumkin.
- Ba'zi hollarda o'qituvchilarning metodik ko'nikmalari va ijodiy yondashuvlari yetarli



bo'lmashligi mumkin.

- O'quvchilarning motivatsiyasini oshirish uchun rag'batlantiruvchi ta'lim texnologiyalari va metodlar yetarli darajada qo'llanmasligi.
- O'quvchilar uchun tajriba va amaliyot o'tkazish imkoniyatlarining cheklanganligi.

Biologiya ta'limida o'quvchilarda mustaqil va ijodiy faoliyatlarini rivojlantirishdagi muammolarni hal etishda quyidagi yechimlarni tavsiya etiladi:

- Interaktiv va qiziqarli darslar o'tkazish, biologiya kundalik hayotdagi ahamiyatini tushuntirish orqali o'quvchilarning qiziqishini oshirish.
- Zamonaviy o'quv materiallari va laboratoriya jihozlari ta'minlash, onlayn resurslar va texnologiyalarni ta'lim jarayoniga jalb etish.
- O'qituvchilar uchun malaka oshirish kurslari va seminarlarni tashkil etish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodlarni o'rganish.
- O'quvchilarni mustaqil va ijodiy faoliyatga jalb qilish uchun rag'batlantirish tizimlarini qo'llash, masalan, mukofotlar, tanlovlar va loyihalar.
- Tajriba o'tkazish uchun laboratoriyalar tashkil etish, ilmiy loyihalar va tadqiqotlar uchun sharoit yaratish.

O'quvchilarda mustaqil va ijodiy faoliyatlarini rivojlantirishda quyidagi amaliy yechimlar tavsiya etiladi:

- Biologiya ta'limida loyihaviy ta'lim texnologiyasidan samarali foydalanish. O'quvchilarni ilmiy loyihalar va tadqiqotlarga jalb qilish.
- Botanika bog'lari, zoologiya muzeylari va ilmiy markazlarga ekskursiyalar uyushtirish.
- Interaktiv metodlarga asoslangan darslarni tashkil etish.
- Biologiya fani mashg'ulotlari qiziqarli va yanada tushunarli bo'lishi uchun raqamli texnologiyalar(AKT)dan foydalanish.
- O'quvchilarning ilmiy tadqiqotlar va eksperimentlar o'tkazishlariga yordam beruvchi to'garaklar tashkil etish.

Ushbu zamonaviy yondashuvlar orqali biologiya ta'limida o'quvchilarning mustaqil va ijodiy faoliyatlarini rivojlantirishga yordam berish mumkin.

Yuqoridagilarga asoslanib quyidagi xulosaga kelish mumkin.


O'quvchilarda biologiya faniga qiziqishni uyg'otish va motivatsiyani oshirish uchun interaktiv darslar, qiziqarli laboratoriya mashg'ulotlari va real hayotiy misollarni qo'llash zarur. Bunday yondashuv o'quvchilarning biologiya faniga nisbatan ijobiy munosabatini shakllantirishga yordam beradi.

Ta'lim jarayonida zamonaviy resurslar va texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning mustaqil va ijodiy faoliyatlarini rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Elektron o'quv materiallari, onlayn platformalar va virtual laboratoriyalar o'quvchilarga o'rganish jarayonini qiziqarli va samarali qilish imkonini beradi.

O'qituvchilarning malakasini oshirish va yangi pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish biologiya ta'limida o'quvchilarning mustaqil va ijodiy faoliyatlarini rivojlantirish uchun muhimdir. Malakali va motivatsiyali o'qituvchilar o'quvchilarning qiziqishini oshiradi va ularga yangi bilimlar olishda yo'l-yo'riq ko'rsatadi.

O'quvchilarga biologiya fanida amaliyot va tajriba o'tkazish imkoniyatlarini yaratish ularning mustaqil va ijodiy fikrlashini rivojlantirishga katta yordam beradi. Tajribalar va laboratoriya ishlari o'quvchilarning ilmiy yondashuvlarini kuchaytiradi va ularning nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llashga yordam beradi.

O'quvchilarning mustaqil va ijodiy faoliyatlarini rag'batlantirish uchun turli xil tanlovlar, loyihalar va mukofotlar tizimini joriy etish muhimdir. Bunday tadbirlar o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi va ularni yangi yutuqlarga undaydi.



Fodalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6-noyabrda “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108 sonli farmoni.
2. Allamuratov M. va boshqalar “Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida biologiya fanidan laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish uchun metodik qo‘llanma”- T.: O‘zFA «Fan», 2008 y.
3. G‘ofurov A.T., Tolipova J.O. va boshqalar. Biologiya o‘qitish metodikasi. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. Toshkent, 2013 y.
4. Niyozov Q.A. Biologik ta’lim jarayonida o‘quvchilarda mustaqil va ijodiy fikrlashni rivojlantirish. Namangan, 2019 y.
5. Niyozov Q. A. Biologiya fanini o‘qitishda pedagogik texnologiyalar. – 2017.
6. Niyozov Q. Biologiya ta’limi jarayonida o‘quvchilarda kompetensiyalarning shakllanishida innovasion texnologiyalarning o‘rni //Toshkent shahar XTXQTM Oida tashkil etilgan «Xalq ta’limi tizimidagi «Mahorat maktablari» faoliyatini tashkil qilishning ilmiy-nazariy va metodologik asoslari» mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami.–T.:«Fan va texnologiyalar. – 2017.
7. Adashaliyevich N. Q. Senior lecturer, Namangan Regional Center for Retraining and Advanced Training of Public Educators, Republic of Uzbekistan Brief abstract. In this article, it is written about the importance of global network to improve biology teachers’ professional competence and problems in this process and ways of solving them //LBC 94.3 T-2. – C. 340.
8. Niyozov Q. A. O‘QUVCHILARNI TIMSS XALQARO BAHOLASH DASTURIDA KELITIRILGAN TOPSHIRIQLARNI BAJARISHGA TAYYORLASHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 4. – C. 1005-1010.
9. Niyozov Q.A., “O‘quvchilarni PISA xalqaro baholash dasturida keltirilgan topshiriqlarni bajarishga tayyorlashdagi muammolar va ularning yechimlari”. Surxondaryo viloyat pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazida 2023-yilning 30-may kuni “Aniq va tabiiy fanlarni o‘qitishda zamonaviy yondashuv: muammo va yechimlar” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami.
10. Niyozov Q.A., Qodirjonov B.R., “Biologiya fanidan amaliy mashg‘ulotlarni samarali tashkil etish orqali o‘quvchilarda mustaqil va ijodiy fikr yuritish ko‘nikmalarini rivojlantirish”. Qoraqalpog‘iston Respublikasi pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazida 2023-yilning 24-may kuni “Yangi metodikalar: zamonaviy pedagoglarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishi garovi” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami.
11. <https://tsbm.uz/> - Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi sayti.
12. <https://t.me/nambiolog> telegram kanali.